

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL – XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

**ABDULLAEVA SHAXLO SANATOVNA
MAKTAB O'QUVCHILARIGA FUTBOL TEXNIKASINI O'RGATISHDA
PEDAGOGIK YONDASHUV USLUBLARI**

**5112000-Jismoniy madaniyat bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Ibragimov O.



Urganch – 2016



MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Masalaning adabiy manbalar bo'yicha holati.....	5
1.1. Yosh futbolchilarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	5
1.2. Jismoniy sifatlar to'g'risida tushuncha	9
1.3. Turli yoshli futbolchilarni jismoniy tayyorlashda ilmiy izlanishlar	11
1.4. Turli yoshli futbolchilarda jismoniy qobiliyatlar va texnika	15
1.5. Kuch va uni tarbiyalash usullari	21
1.6. Egiluvchanlik va uni tarbiyalashning usullari	26
1.7. Turli yoshli futbolchilar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari	32
II bob. Tadqiqot vazifalari uslublari va tashkil etilishi.....	37
2.1. Tadqiqot vazifalari.....	37
2.2. Tadqiqot uslublari.....	37
2.2.1. Ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarini tahlil qilish va umumlashtirish.....	37
2.2.2. Pedagogik kuzatuvlar.....	37
2.2.3. Pedagogik nazorat sinovlari	37
2.2.4. Pedagogik tajriba.....	37
2.2.5. Matematik statistik hisoblash metodi.....	38
2.3. Tadqiqotning o'tkazilishi.....	38
III bob. Pedagogik tadqiqot natijalari va ularning tahlili.....	40
3.1. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishdagi murabbiy ko'rsatmasi, fikrlari taxlili	40
3.2. Kuchni tarbiyalash xususiyatlari	42
3.3. Egiluvchanlikni rivojlantirish	44
3.4. Umumiy chidamlilikni tarbiyalash	46
Xulosa.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49




KIRISH

Ishning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamiz futbolchilari Osiyo musobaqalarida yuqori natijalarga erishib, O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarishmoqda. Respublikada sportning ko'tarilishida Prezidentimiz I.A. Karimovning hissasi kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bulardan, Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 17 yanvardagi 27 sonli «O'zbekiston futbolini rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'grisida»gi qarori, «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida»gi qarori 2015 yil 04 sentyabr (yangi taxriri), «Sog'lom avlod uchun» dasturi, va boshqa bir qancha qator xukumat qarorlari sport xarakatini rivojlantirishga yo'l ochmoqda.

Prezident I.A.Karimov va O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yaqin kelajakka belgilangan yirik ijtimoiy dasturlar ichida O'zbekiston aholisi sog'ligini muhofaza qilish va mustahkamlash, mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topkan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mamlakatimiz sportini rivojlantirish soxasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini xisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda axolining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib xayotga tadbiiq etilmoqda. Chunki sport millatning o'zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jiplashuvida va birlashuvida, o'zidagi bor saloxiyatini xamda millat sifatidagi qudratini jaxon uzra namoyon etmoqda.



O'zbek futbolchilarining mahoratini oshirish bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqori malakali jamoalarda o'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligidagi nuqsonlarini tuzatish ancha qiyin. Shuning uchun bolalar va o'smirlarning mashq jarayonlari qanchalik samarali bo'lsa, yuksak natijalar uchun kurashlar ham shunchalik ko'p muvaffaqiyat olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Turli yosh futbolchilarda jismoniy tayyorgarlik me'yorini baholash va kuch xamda Egiluvchanlik sifatlarini o'rganish va pedagogik tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ekti –Urganch shahar 5-son futbolga ixtisoslashtirilgan maktab internati futbil to'garagi mashg'ulotlari.

Tadqiqot predmeti – yosh futbolchilarni mashg'ulotlardagi jismoniy sifatlarini pedagogik tahlili.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Dastlabki tayyorlov davrida jismoniy qobiliyatlarni yosh futbolchilar tomonidan bajarishlarni tekshirish; mashg'ulotlarda yosh futbolchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashdagi mashqlar va murabbiy ko'rsatmalari taxlil kilinadi.

Tadqiqot farazi. Yosh futbolchilarni jismoniy sifatlarini o'rganish va ularni rivojlantirishni samarali yo'llarini aniqlash katta qiziqish uyg'otadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi. Ish kirish uchta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan.



I.BOB. MASALANING ADABIY MANBALAR BO`YICHA XOLATI

1.1. yosh futbolchilarni tayyorlashning o`ziga xos xususiyatlari

Tayyorgarlikning tashkiliy shakllari

Futbolchilarni o`rgatish va takomillashtirishning asosiy shakli mashg`ulot hisoblanadi.

Futbol – jamoaviy o`yin, shuning uchun o`quv mashg`u-lotlari asosan jamoaviydir.

Mashg`ulotga qo`yiladigan talablar:

- mashg`ulotda qo`yilgan vazifa bajarilishi lozim;
- mashg`ulot intizom va mehnatsevarlikni tarbiyalashi lozim;
- mashg`ulotni shunday rejalashtirish kerakki, futbolchilar harakat ko`nikmalari va sifatlarini ongli ravishda egallasinlar;
- mashg`ulot yagona o`quv-mashg`ulot jarayonining bo`limi bo`lishi kerak;
- mashg`ulotning mazmuni texnik, taktik, jismoniy, ruhiy tayyorgarliklarning o`sishiga javob berishi lozim.

Mashg`ulotning tuzilishi uch qismdan iborat: tayyorlov, asosiy va yakunlovchi.

Mashg`ulot qismlarining vazifalari:

- tayyorlov qism – organizmni asosiy ishga tayyorlash;
 - asosiy qism texnik usullarni o`rgatish va takomil-lashtirishga, taktik harakatlarga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, ruhiy tayyorgarlikni va ahloqiy-irodaviy sifatlarni yaxshilashga qaratilgan bo`lishi kerak;
 - yakunlovchi qism organizmni mashg`ulotdan oldingi holatiga keltirishi lozim.
- Mashg`ulot jarayonida quyidagi tamoillga amal qilish maqsadga muvofiqdir:
- mashg`ulot yuklamasini (yuklamasini) sekin-asta oshirish, barqarorlashtirish;
 - bir me'yorga yetkazish va kamaytirish.



Bunda organizmni ma'lum bir holatga keltiradigan mashqlararo dam olishlar (pauzalar) muhimdir. Bu dam olishlar (pauzalar) soni va davomiyligi yuklamalarni dozirovkalashga, mashqlarga o'zgartirishlar kiritishga, xato va kamchiliklarni to'g'rilashga va keyingi mashqni bajarish uchun fikrni jamlashga imkon beradi.

Mashg'ulotlar o'zining maqsadi, vazifasi va uslubiyati bo'yicha kompleks va tematik mashg'ulotlarga bo'linadi.

Kompleks mashg'ulot

Kompleks mashg'ulotlar yillik sikl mashg'ulotlari-ning hajmida birinchi o'rinda turadi. Bu mashg'ulotlar barcha tayyorgarlik turlari darajasini rivojlantirish va oshirish vazifalarini bajaradi.

Kompleks mashg'ulotlarda tayyorgarlik turlarining uyg'unligi:

- jismoniy, texnik, taktik;
- jismoniy, texnik;
- jismoniy, taktik;
- texnik-taktik.

Tematik mashg'ulot

Tematik mashg'ulotlar yillik sikl mashg'ulotlarining umumiy hajmida kamroq vaqtni qamrab oladi. Ammo ular tayyorgarlikning turli bosqichlarida o'z o'rniga ega bo'lishi lozim:




a) jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot. Mashg'ulot mazmuni umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivoj-lantirishga qaratilgan mashqlardan iborat. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining ko'p qismi tayyorlov davrida o'tkaziladi.

b) Texnik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'yinning barcha texnik usullarini o'ziga qamrab oladi. Texnik elementlarga o'rgatish va takomillashtirish bilan bog'liq mashg'ulotlar barcha tayyorgarlik davrlarida olib boriladi.

v) Taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar indivi-dual, guruhli va jamoaviy taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirishga yo'naltirilgan mashqlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar tayyorlov davrida (maxsus tayyorlov, musobaqa oldi) va musobaqa davrida o'tkaziladi. Taktik tayyorgarlikka o'rgatish bosqichida mashg'ulotlar maydonda harakat qilish va mashg'ulotning nazariy qismiga bog'liq xilma-xil mashq-larni o'z ichiga oladi, ammo taktikani takomillashtirish bosqichida u uzluksiz o'yin texnikasiga bog'liq mashqlardan iborat bo'ladi. SHunday qilib, takomillashtirish bosqi-chida taktika bo'yicha mashg'ulotda qiyin texnik usullarni qo'llamasdan iloji yo'q, bundan mashg'ulotni texnik-taktik yo'nalishda deb atash mumkin.

Guruhli va individual mashg'ulotlar

Futbol o'yinining jamoaviy xarakteri o'yinchilarning o'zaro harakatlariga yuqori talablar qo'yadi. SHuning uchun futbolda mashg'ulotlar, asosan, guruhli mashg'ulotlar shak-liga ega. Guruhli mashg'ulotlarda o'zaro harakatlar, texnik usullarni soddalashtirilgan va murakkab sharoitlarda, minimal va maksimal darajada o'yin sharoitiga yaqinlash-tirilgan holatda bajarish vazifalari hal etildi. Guruhli mashg'ulotlarda musobaqa vazifalari samarali tarzda yechi-ladi, jamoaviy ruh tarbiyalanadi.



Individual mashg`ulotlarda futbolchining mahorati va individual xususiyatlari takomillashadi. Individual mashg`ulot futbolchining tayyorgarligini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Individual mashg`ulotlarning maqsadi – futbolchilar tayyorgarligida takomillashish sur'atini tezlashtirish.

Individual mashg`ulotning vazifalari:


- harakat sifatlari va ko`nikmalarini takomillash-tirishda mutaxassislikning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlikdagi kamchilik-larni to`g`rilash;
- mashg`ulotlarda majburiy tanaffuslar oralig`ida yo`qotilgan sifatlarni tiklash;
- texnik usullar va shaxsiy sifatlarni takomillash-tirish;
- bajarilishi qiyin bo`lgan texnik elementlarni takomillashtirish.

Individual mashg`ulotning asosiy shakli murabbiy va shifokorning nazorati ostida olib boriladigan o`quv-mashg`uloti hisoblanadi.

Individual mashg`ulotlar o`tkazish uslublari:

- aylanma;
- takroriy;
- interval;
- birgalikda.

Individual mashg`ulotlarda maxsus va yordamchi jihozlar bilan ta'minlangan maydoncha bo`lishi katta ahamiyat kasb etadi.




1.2. Bolalar va o`smirlar organizmining anatomik va fizologik xususiyatlari

Organizm funksiyalarining rivojlanishida markaziy nerv sistemasi va, avvalo, uning oliy bo`lagi-bosh miya po`stlog`i yetakchi rol o`ynaydi. Jinsiy yetilish davriga kelib, nerv sistemasining anatomik rivojlanishi deyarli batamom tugallanadi. Miyadagi harakat analizatori yadrosi-ning yetilish jarayoni 12-13 yoshlarga kelib tugallanadi.

Katta yarim sharlar funksiyalarining qaytadan qurilishi bolalarning xulq-atvori, psixikasida o`z aksini topadi. O`smirlik yoshida bolalarning umumiy psixik qiyofasi ayniqsa tez o`zgaradi. Bolada o`z-o`zini namoyon qila borish jarayoni boshlanadi. O`smirlarda ma`lum bir faoliyat turida o`z kuchini sinab ko`rish, biror bir natijaga erishish ishtiyoqi paydo bo`ladi. O`smir turli-tuman narsalarga qiziqqa boshlaydi, lekin bu qiziqishlar hali yetarlicha barqaror bo`lmaydi.

8-10 yoshda tafakkur va xotirada muhim o`zgarishlar ro`y beradi. Ta`lim va tarbiya jarayonida mantiqiy fikr yuritish va abstrakt tafakkur qilish qobiliyati rivojlanadi. O`rganilayotgan harakatlarga tanqidiy yondashish paydo bo`ladi. Xotira ishidagi o`zgarishlar shunda ifodalanadiki, esga olish ancha kichik yoshda bo`lganidek konkret hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishga qarab bormaydi, balki umumiy tasavvurlardan borliqdagi konkret hodisalarning ayrim detallarini xotirada tik-lashga qarab boradi. SHuning uchun bu yoshda futbol texnikasini o`rganishni (texnikani bajarish detallariga alohida e`tibor bergan holda) yaxlit uslub asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda harakatlarni eslab qolish qobiliyati yosh oshib borgan sari ham miqdor, ham sifat jihatidan o`zgaradi. Bolalarning eslab qolish qobiliyati 7 yoshdan 12 yoshgacha bo`lgan davrda juda tez o`sib boradi. Bu davrda erkin harakatlar koordinasiyasi ancha yaxshilanadi. Harakatlarga avvalgiga qaraganda kam kuch sarflanadi va ular tobora harakatlarni aniq va tez bajariladigan bo`lib boradi. 9-10 yoshli bolalar futbol o`yinining eng oddiy usullarini nisbatan oson o`zlashtirib oladilar, shu bilan birga, kattaroq yoshda ularni yanada takomillashtirish ishi ancha muvaffaqiyatli




bo`ladi. 13-14 yoshli o`smirlarda koordina-siya bo`yicha murakkab harakatlarni o`rganishda pubertat davrining tormozlovchi ta`siri sezilarlidir. Bolalar bilan ishlovchi murabbiy va pedagoglar shuni hisobga olishlari kerakki, bolalar futbol bilan qancha erta shug`ullana boshlasa, ularda shug`ullanuvchilar imkoniyatla- riga mos bo`lgan harakat ko`nikmalari shunchalik tez va oson hosil qilinadi.

Bola yoshligidan sport bilan shug`ullansa, bu – orga-nizmning shakllanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bu ta`sir ikki xil namoyon bo`ladi: morfologik o`zgarishlar – bunda antropometrik belgilar tez o`sadi; funksional o`zgarishlar – bunda ishchanlik qobiliyati o`sadi.

Jismoniy mashqlarning suyak tizimi rivojlanishiga ta`siri ayniqsa sezilarlidir (bolalik yoshida suyak tizimida juda ko`p o`zgarishlar bo`ladi). Masalan, juda ko`p tadqiqotlar bolalar umurtqa pog`onasining juda ham qayishqoqligi va uzoq vaqt zo`riqish natijasida noto`g`ri holatda bo`lishi tufayli qiyshayib qolishi mumkinligidan dalolat beradi. 8-9 yoshli bolalarning umurtqa pog`onasi juda ham harakatchan bo`ladi. Bolalarda bo`yin va ko`krak qafasi bukiklari maktab yoshiga kelib qotadi. Bel bukiklari esa faqat balog`at yoshiga yetish davriga kelib to`liq qotadi. Umurtqa pog`onasining qiyshayishi tufayli kuzati-ladigan qaddi-qomatdagi buzilishning ko`pchiligi 11-15 yoshlarda ro`y beradi. Bu yoshda umurtqa pog`onasining to`g`ri rivojlanishi uchun umurtqa mushaklarini mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlar bajarishni topshirish juda muhimdir.

Bolalik yoshida suyak qotish jarayoni hali tugallan-magan bo`lishini hisobga olish kerak. 9-11 yoshlarga kelib, odatda, qo`l barmoqlarining suyagi, bir oz keyinroq, 10-13 yoshlarda bilak va jag` suyaklari, 14-16 yoshlarda bilak va jag` suyaklari qotadi. 14-16 yoshlarda epifizar kemirchaklarda, umurtqa pog`onalari orasidagi disklarda suyak qotish zonalari paydo bo`ladi. Tos suyaklari faqat 20-21 yoshlar-dagina batamom qotadi. O`mrov suyagi, kurak suyagi, yelka va bilak suyaklari 20-25 yoshlarga, oyoq panjalari, oyoq kafti va oyoq tovonining orasidagi suyaklar tegishlicha 15-21 va 17-21 yoshlarga kelib to`liq qotadi.




O'smirlik yoshida gavdaning o'sish sur'ati yuqori bo'lishi va gavda og'irligining ortishi qayd qilinadi. Gavdaning bo'yiga qarab o'sishi o'smirlarda asosan 17-18 yoshlarda tugallanadi. SHuning uchun katta balandlikdan sakrab tushayotganda qattiq depsinish, to'p uchun kurashayot-ganda yelka bilan yelkani tutish, birdan to'xtash va keskin burilish, o'ng va chap oyoqqa notekis yuklama berish bel va tos suyaklarining qo'shilib ketishiga, ularning noto'g'ri o'sishiga sabab bo'ladi. Oyoqlarga haddan tashqari yuklama berish, agar suyak qotishi jarayoni tugallanmagan bo'lsa, oyoqning taypoq bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Bolalar skeletining jadal rivojlanishi ularning mushaklari, paylari va bog'lovchi bo'g'in apparatining shakllanishi bilan mustahkam bog'langan.

Bolada 8 yoshda mushaklar og'irligi gavda og'irligining 27% ini, 12 yoshda – 29,4% ini, 15 yoshda – 32% ini, 18 yoshlarga kelib esa 44,2% gachasini tashkil etadi. Mushaklar og'irli-gining ortishi bilan birga ularning funksional xossalari ham takomillashib boradi.

Mushaklarning funksional xossalari 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davrda jiddiy o'zgaradi. 14-15 yoshli bolaning mushaklari o'zining funksional hossalariiga ko'ra katta yoshli kishining mushaklaridan unchalik farq qilmaydi. 11 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan davrda futbolchilarning mushak kuchi bir tekisda rivojlanib bormaydi. 13 yoshdan 15 yoshgacha mushak kuchi eng ko'p o'sadi. Asosiy kuch ko'rsatkichlari 73,2 dan 103,2 *kg* gacha, ya'ni 30 *kg* ga ortadi. 15-17 yoshda absolyut mushak kuchi kam o'zgaradi, faqat 16-20 yoshlarda u katta kishiga xos bo'lgan darajaga yetadi. 17-19 yoshli futbolchilarda asosiy kuch miqdori tegishlicha 126; 136,3; 159,1 *kg* ga yetadi. Asosiy kuch ko'rsatkichlarining o'rtacha yillik o'sishi futbolchilarda 12,3 *kg* ni tashkil etadi. 12 yoshdan 18 yoshgacha mushak kuchining o'sishini ko'rsatuvchi maksimal miqdor tovon mushaklari bilan ifodalaniladi (2,5 marta).

YOsh futbolchilarda tezlikni rivojlantirish dinami-kasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda harakatlar sur'ati tez o'sib boradi. Harakatlarning tezligi va ixtiyoriy chastotasi, shuningdek, ularning maksimal



sur'atini saqlab turish qobiliyati 14-15 yoshlarga kelib, oxirgi natijaga yaqin bo'lgan qiymatga erishadi. Futbolchilarning 60 m ga yugurishdagi natijalari 12-15 yosh orasida o'sib boradi, 15 yoshdan keyin esa ular bir oz barqarorlashadi, bu hol keyinchalik «tezlik bar'eri»ning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Agar 60 m ga yugurishdagi natijalar 11 yoshdan 18 yoshgacha 1,4 soniyaga yaxshilansa, 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrda u maksimal miqdorni – 1,16 soniyani tashkil etadi. Keyingi yillarda natijalar juda kam (0,24 soniya) yaxshilanib boradi.


Bolalar va o'smirlarning organizmi tezlik yuklama-lariga yaxshi moslashadi. SHuning uchun 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davr tezlikni va kuch sifatlarini rivojlantirish ham yosh ortgan sari qat'iy oshib boradi. Ular 13 yoshdan 16 yoshgacha eng yuqori darajada rivojlanadi. Bu davrlarda turgan joydan balandlikka sakrash natijalarining yillik o'sish ko'rsatkichlari tegishlicha 3,7 va 6,2 sm ga tengdir. 11 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan davrda sakrash balandligi 24 sm ga ortadi.

Bolalarda chaqqonlikning yoshga qarab rivojlanishi 10 yoshgacha ancha jadal bo'ladi. Keyingi yillarda chaqqonlik harakat apparati funksional imkoniyatlarining qat'iy ortishi hisobiga anchagina rivojlandi.

Kichik maktab yoshi (7-11 yosh) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi shu yoshlarda bo'g'imlardagi harakatchanlik bilan mushaklarning baquvvat bo'lishi o'rtasida optimal nisbat kuzatiladi.

Maksimal tezlikning 75% iga to'g'ri keladigan tezlik bilan yugurish uzunligi bo'yicha aniqlanadigan chidamlilikning eng ko'p o'sishi 13-14 yoshlarda kuzatiladi, 15-16 yoshda chidamlilik kamayadi. Bu maksimal tezlikning o'sishi va buning natijasida ish quvvatining ortishi bilan tushuntiriladi. 17 yoshda o'smirlarda chidamlilik yana ortadi.

SHuni qayd qilish kerakki, jismoniy mashqlar, jumladan, futbol bilan shug'ullanish ta'sirida yosh sport-chilarda jismoniy sifatlarining rivojlanishidagi biologik qonuniyatlar o'zgarmaydi. Faol pedagogik ta'sir ularning ancha yuqori darajada




rivojlanishiga yordam beradi. U yoki bu xislatlarning ko`proq rivojlanishi ro`y berayotgan yoshda yuklamani kamaytirmaslik muhim ahamiyatga ega.

Harakat faoliyati faqat tayanch-harakat apparatining rivojlanishi bilan emas, balki shu apparatga xizmat qiluvchi ichki a`zolar va tizimlarning funksional imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Bolalar organizmining jinsiy yetilish davridagi o`ssishi va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar jismoniy yuklamalarni me'yorlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr jinsiy yetilish davrining boshlanish muddatlaridagi individual o`zgarishlar bilangina emas, balki bir xil yosh guruhlaridagi o`smirlarda uning o`tib borish jadalligi har xil bo`lishi bilan ham xarakterlanadi. Bir yilda tug`ilgan o`smirlarning jinsiy yetili-shidagi individual sur`atlar harakat funksiyasining umumiy somatik rivojlanish darajasiga, shuningdek, yurak-tomir tizimining bir qolipdagi mushak ishiga muvofiq-lashish xarakteriga jiddiy ta'sir ko`rsatadi. 14 yoshli futbolchilar orasida katta yoshli kishi holatiga erishgan o`smirlarni ham, shuningdek, yetilish belgilarining shaklla-nishida bolalik belgilari bo`lganlarini ham uchratish umkin. SHuning uchun yuklama miqdorini yoki normativ talablarni aniqlashda sportchining biologik yoshini hisobga olish zarurki, ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanganlik darajasi uning asosiy mezonlaridan biridir.

Taxminan 12,5 yoshda bolalarning tovushi o`zgaradi, 13 yoshda qovda tuklar paydo bo`ladi. Tegishlicha 13,5-14 yoshlarda emchak uchlari va hiqildoq kemirchaklarining pubertat o`zgarishlari ro`y beradi. Eng oxirida – o`rtacha 14 yoshu 1,5 oylarda qo`ltiq ostida tuklar paydo bo`ladi.

Bolalar organizmi vegetativ tizimlarining mushak ishiga ko`rsatadigan reaksiyalari xarakteriga qarab ular-ning funksional imkoniyatlari haqida fikr yuritish mumkin. Bolalarda mashq bilan malaka hosil qilish davri katta yoshli kishilarga qaraganda o`rtacha-qisqa, shuning uchun mashg`ulot mashg`ulotidagi chigil yozish vaqt jihatidan uzoq bo`lmasligi kerak. Bu markaziy nerv tizimining funksional imkoniyatlari hamda mushak, yurak-tomir, nafas olish va organizmning boshqa




tizimlarining funksional imkoniyat-lari bilan bog`liqdir. 9-12 yoshli bolalarning bajarayotgan ishga tez moslashish qobiliyatini qayd etib, yosh sportchi-larning vegetativ faoliyatidagi ba`zi xususiyatlarni ko`rsatib o`tish zarur. Masalan, jismoniy yuklama vaqtida bolaning yuragi katta yoshli kishining yuragidan ko`proq energiya sarflaydi, chunki 13-14 yoshli o`smirlarda qonning bir minutdagi hajmi, asosan, yurak faoliyatining tezlashuvi hisobiga ko`payadi, 16-18 yoshgacha bo`lgan davrda bolalarda yurakning qisqarish sur`ati 30% ga, tinch holatdagi energiya sarfi esa 40-45% kamayadi. Jismoniy yuklama katta bo`lganda, bu ko`rsatkichlar kattaroq bolalarda kichik bolalarga qaraganda ancha ko`p o`sib boradi.

Bolalarning bir xil harakatdan tez zerikishlarini hisobga olib, mashg`ulotlar xarakterini o`z vaqtida o`zgarti-rish maqsadga muvofiqdir. YUqori darajadagi ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish uchun futbol mashg`ulotlarida tanaffuslar tez-tez bo`lishi, lekin uzoq davom etmasligi kerak. Uzoq vaqt beharakat turish bolalarning mashg`ulot-larga bo`lgan qiziqishlarini kamaytiradi va mashg`ulot natijalariga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Mashg`ulotlar vaqtidagi qisqa tanaffuslarning fiziologik jihatdan to`g`riligi amalda isbot qilingan, chunki bolalarning charchog`i tezda yo`qoladi, nega deganda bolalardagi ishdan keyingi tiklanish davri kattalarnikiga qaraganda qisqa bo`ladi. Eng qisqa tiklanish davri 11-12 yoshli bolalarda kuzatiladi.

Nafas olish organlari yurak-tomir tizimi bilan mustahkam aloqada ishlaydi. Nafas olish apparatining o`lchamlari va funksional imkoniyatlari yosh ortishi bilan kengayib boradi. Ko`krak qafasi nafas olish harakatlari natijasida tobora kattalashadi. O`g`il bolalarda 7 yoshdan 12 yoshgacha ko`krak qafasi aylanasi 59,9 *sm* dan 67,8 *sm* gacha ortadi, o`pkaning tiriklik sig`imi 1400 *ml* dan 2200 *ml* gacha ko`payadi.

Bolalarning nafas olish mushaklari rivojlanishi chuqur nafas olishni ta`minlaydi, mushaklarning jadal ishlashi o`pka ventilyasiyasining ancha ortishiga imkon yaratadi. O`g`il bolalarda nafas olish mushaklarining kuchi yosh o`sishi bilan o`zgaradi, biroq u 8 yoshdan 11 yoshgacha juda tez ortadi. Bolalarda mushak



ishlagan vaqtda 1 kg og'irlikka nisbatan kislorod iste'mol qilish katta kishilarga qaraganda ko'proq. SHu munosabat bilan ochiq havoda futbol bilan shug'ullanish nafas olish organlarining ishini va, umuman, butun organizm ishini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

1.3. Jismoniy sifatlar to'g'risida tushuncha


Mustaqil davlatimizda yosh avlodning jismoniy kamolotini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Shu sababli yurtimizda Vatan mustaqilligini mustahkamlaydigan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi tadqiqotning birinchi bobida ta'kidlangan edi.

Xalq pedagogikasi milliy an'analar ta'siri vositasida maktab o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishi tarbiyada muhim omillardan biri ekanligini doimo uqtirib keladiki, jismoniy tarbiya jarayonida ham bu ko'rsatmalardan foydalanish samara berishi shubhasiz. Bir qator olimlarning kuzatuvlaridan ma'lumki, optimal harakatlanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va qobiliyatining oshishi uchun katta imkon beradi.

Bir guruh olimlar va amaliyotchilarning fikricha, O'quvchilarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e'tiborini oshirish, ma'naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Ko'pgina olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o'quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog'liqdir.

K.Balsevich tadqiqoti bo'yicha, bolalarning jismoniy faolligi quyidagicha: 7-10 yoshli bolalar jismoniy sifati ko'rsatkichining barchasi o'sishning yuqori tempda borayotganligini namoyon etadi. Faqat yegiluvchanlik ko'rsatkichining tempi bu davrda pasayib boradi. Bu yoshdagi bolalarda biodinamik harakatning va eng avvalo, koordinatsion qismlarning shiddatli rivojlanishi ro'y beradi.

7-10 yoshlar orasida jismoniy sifatlarning va koordinatsion qobiliyatning, inson harakat faolligining namoyon bo'lishi uchun amaliy jihatdan juda yaxshi zamin tayyorlanadi. F.N.Nasriddinov, X.M.Maxkamjonovlar ko'rsatkichlari bo'yicha jismoniy



tayyorgarlik natijalari yoshdan yoshga o'tish bilan hamma ko'rsatkichlar ma'lum miqdorda ortib borishini ko'rsatadi.

A.N.Livitskiy ilmiy tadqiqot ishlarining ko'rsatishicha, qo'l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg.ga etadi. Shu yoshdan boshlab, harakatli o'yinlar vositasida, bu sifatlarni yanada rivojlantirish ehtimoli kuchli. Yosh o'zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi.


F.N.Nasriddinov, X.M.Maxkamjonovlar maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha olgan ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, 5-7 yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishi bir tekisda borar ekan, kichik maktab yoshiga kelib esa rivojlanishning tezlashish jarayoni ro'y beradi. Shunga asosan tadqiqotda milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy mashqlar majmui tanlab olindi.

“Jismoniy sifatlari” va “jismoniy tayyorgarlik” termini maxsus adabiyotlar sifatida foydalaniladi. Bular insonni harakat imkoniyatlarining ayrim tomonlarini aniqlaydilar. Jismoniy sifatlari dinamikasiga tadbigan “rivojlanish” va “tarbiya” terminlari qo'llaniladi. “Rivojlanish” termini sifatning sog'lomlashtiruvchi o'zgarishlarini borishini xarakterlaydi. “Tarbiya” esa harakatlantiruvchi sifatning ko'rsatkichlari o'sishiga ta'sir o'tkazishning faolligi va yo'naltirilganligini nazarda tutadi.

Jismoniy sifatlarga (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik) tegishli. Jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va harakatlar bilan o'rgatish mustahkam chirmashib ketadi. Jismoniy tarbiyaning bu tomonlarini o'rganish va ayrim-ayrim qarab chiqish ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq bilib olishga yordamlashadi.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash organizmning rivojlanishi va o'sishi bilan bog'langan qator xususiyatlarga ega:

1. O'spirinlik va yoshlik yoshlarida bitta sifatning rivojlanishi boshqa jismoniy sifatlarni o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalashga majmualiy yondoshuv zaruriyati talab qilinadi.



2. Organizmning rivojlanib borishida jismoniy sifatlarning o'sishi ayrim yoshlarda ayniqsa jadal ro'y beradi. Bu sezgirlik (yoki sensitiv) davrlari deb ta'kidlanadi. Chunonchi, mushak kuchi uchun o'sishning eng ko'p tezlik darajasi 13-15 yoshlilarga xarakterli, qizlarda chidamlilik ko'rsatkichi 11-13 yoshda eng jadal o'sadi, o'g'il bolalarda esa – 14 yoshda, mutaxassislarning fikri bo'yicha 8-11 yosh tezkorlik imkoniyatlarini tarbiyalash uchun eng qulaydir. Chaqqonlikni bolalar bilan taqqoslash bo'yicha o'smirlarda, kattalarda esa – yoshlar bilan taqqoslash bo'yicha tarbiyalash xiyla qiyinroq kechadi.

3. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash katta jismoniy yuklamalar bilan kuzatiladi. Bolalar va o'smirlar ularning asta-sekin o'sishiga og'ishmay rioya qilinganda organizm uchun ziyon etkazmasdan o'tkazish qobiliyatiga egadirlar.

1.3. Turli yoshli futbolchilarni jismoniy tayyorlashda ilmiy izlanishlar


Yosh futbolchilarni tarbiyalash va ularni yetuk iqtidorli kuchli futbolchi qilib yetishtirish har qachon xam murabbiylarga kattagina mexnatni, izlanishni talab qiladi.

Murabbiylar futbol bugungi kunda, texnika-taktika jismoniy tayorgarlik bo'yicha jadallik bilan o'sayotganligi va yosh futbolchilarni xam bunday rivojlanishga tayorlash kerakligini izohlaydi.

Ko'pgina futbol mutaxassislari A.P.Lapetev, A.A.Suchilin (1983) R.A.Akramov (1987), K.X.Xeddergot (1976), M.A.Godik, A.A.Gukosyan (1986), S.N.Andreev (1991), G.Shamardan (1983), R.N.Nurimov (2005)lar, yosh futbolchilarni mahorat darajasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri ilk yoshlik chog'idan boshlab futbol uyiniga rejasi va malakali ravishda o'rgatishga bog'liqligini ta'kidlashadi.

A.A.Suchilin (1987) yosh futbolchilarni maxoratli qilib tarbiyalashda murabbiylardan bolalarda quydagi jixatlarni ko'ra bilish va talab eta olishni e'tirof etadi:

- bolalarni kuchli-irodaviy, o'zini tuta bilish
- mashg'ulotlarda texnik xarakatlarni, mashqlarni astoidil bajarishlari
- yuqori darajadagi jismoniy sifatlarga (tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, tezlik-kuch) ega bo'lish



- organizmning sog'lom bo'lishi, o'yinlarda funktsional tayyorlarligi a'lo darajada bo'lishini yosh futbolchilarning dastlabki tayyorgarligida mutaxassislar ko'proq texnik tayyorgarlikka e'tibor berishini ta'kidlaydilar. Mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikka 30-40% vaqt ajratishni ko'rsatilgan.

Y.N.Lopachev (1988) shuni e'tirof etadiki, futbolchilarni texnik xarakatlari, jismoniy siftlarni tarbiyalashda, ularning kuchi, yoshi, funktsional imkoniyatlarni xisobga olish zarurdir.

Trenerlik amaliyoti shundan dalolat beradiki, yosh futbolchilarni o'yin texnikasi o'rgatish, jismoniy rivojlantirishda katta futbolchilar trenerovkasiga nisbatan boshqa uslubiyatlarni qo'llash lozim.

Yosh futbolchilar bilan ishlaydigan murabbiylar, futbol sir-asrorlarini mukammal bilish (futbolchi bo'lganligi), futbol uslubiyati bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi o'ta muximdir.


Yosh bolalarning futbol sifatiga kirishi uchun, birinchi navbatda, muvofiq xolda ulg'aygan bo'lishi zarur. Bu bilan shu narsa nazarda tutiladiki xarakatlarni egallash uchun bir xil darajada xam jismonan, xam ruxan tayyor bo'lishi kerak.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi, o'yin texnikasining ayrim usullariga o'rgatish, o'rganilganlarning nazoratsiz qoldirilishi mumkin emas. Agar o'yin texnikasiga o'rgatish rejashtirilgan muntazam mashg'ulotlar bilan o'tkazilsa, unda u yaxshi natija berishi mumkin.

Sport maktablari tizimida yangi sportchilarni o'yin texnikasiga o'rgatishda navbatma-navbat keladigan ketma-ketlikka rioya qilish zarur xamda uni quyidagi tamoyil asosida:

- 1) osondan qiyinga,
- 2) oddiydan murakkabga, amalga oshirish kerak.

Futbol o'yini texnikasi, xarakat malakalarining umumiy o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, bir qator o'ta ixtisoslashgan malakalarga ega. Texnika usullari va to'pni egallab olishning ayrim elementlarini bajarish xamda ularni o'yin vaziyatlarida qo'llash quyidagicha tavsiflanadi:



1) futbol xarakatlari malakasi xar doim ma'lum bir sifatlar, masalan, mushak-kuch, tezkorlik, chidamlilikka asoslanadi;

2) xarakat malakasi o'yin texnikasini ifodalovchi element xisoblanadi va u shundan iboratki, uzoq vaqt ichida yuqori darajada barqaror bo'ladi, ya'ni o'yin texnikasi malakalari ko'p yillarga saqlanib qoladi;

3) o'yin paytida futbolchilar texnik usullarni «o'ziga xos muxitda» qo'llaydilar: o'yin qoidalarida gavda bilan kurash olib borish ruxsat beriladi. Bunda raqibingiz sizga u yoki bu texnika usulini qo'llashingizga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun texnikaga o'rgatish va uni mustaxkamlashda o'yindagi kurash xususiyati xamda raqibning qarshilik ko'rsatuvchi xarakatlarini nazardan qochirmaslik lozim.

O'yin xususiyati va xarakatlarning o'ziga xos tuzilmasi, o'yinchilarning individual jismoniy xamda ruxiy xususiyatlaridan tashqari, texnikaga o'rgatish va uni mustaxkamlashni belgilab beradi. Xarakatlarga o'rgatishni aloxida qismlarga bo'lingan va parchalangan xolda amalga oshirish mumkin emas.


1.4.Turli yoshli futbolchilarda jismoniy qobiliyatlar va texnika

Futbolchi o'zi egallagan, takomillashtirgan texnikani zarur optimal kuch, tezlik, chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlar bilan muvofiqlashtira olsa, u natijali o'yin ko'rsatishi mumkin.

Agar biz munosib kuch va tezlikka ega bo'lmasak, futbol o'yini texnikasi usullarini bajarishga qodir bo'lmas edik. Shu bilan birga chidamliliksiz o'yin texnikasidagi bizning ko'nikmalarimiz (malakalarimiz) kata ahamiyatga ega bo'lmasdi.

Kuch texnika elementlarini bajarishda asosiy o'rin egallaydi: u oyoq, bosh bilan zarbalarni berishda, aldamchi xarakatlar, to'pni olib qo'yishda juda kerak hisoblanadi. Agar futbolchi to'pni kata tezlikda olib yurish paytida bir zumda burilishlar, to'xtashlarni bajarsa, yo'nalishini o'zgartira olsa, u aldashlarni yaxshi qo'llashi mumkin. Shuningdek, kuch sakrash va depsinish uchun xam zarurdir (2,4,13,15,25).

Chidamlilik va texnikaning bog'liqligi xam ob'ektivdir: chidamliligi bo'sh, toliqqan muskullarga ega bo'lgan futbolchi aniq va o'ta nozik xarakatlanishga qodir




emas. Toliqqan muskullar , o'yin vaziyati qanchalik talab qilmasin, asab tizimining «buyruqlariga» bo'ysunmaydi. Chidamlilikning yetishmasligi keyinchalik texnikada xatolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Texnikaning tezlik, chaqqonlik, yegiluvchanlik yoki boshqa jismoniy sifatlarni bilan bog'liqligi xudi shunday bog'liqlikda mavjuddir.

Bu ham tavsiflar trenerning amaliy ishida e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Texnika jismoniy sifatlarni takomillashtirishdan ajralgan xolda o'rgatishni xoxlaydigan trener, noto'g'ri yo'ldan borayotgan xisoblanadi. Albatta, texnikani mustaxkamlash o'z-o'zidan zarur jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, faqat u yetarli darajada bo'lmagligi mumkin.

Yaxshi futbolchi chaqqonlikka xam ega bo'ladi, albatta. O'yin paytida kurashish sharoitlari doimo va tez o'zgarib turadi, shuning uchun o'yinchi beto'xtov va bir zumda o'yin vaziyatining o'zgarishiga moslashishi lozim bo'ladi. Xarakatlarni tez egallab olgan, ulardan o'yin paytida oqilona foydalana oladigan, o'yinda yuzaga kelgan vaziyatlarda tez va aniq yo'l topa oladigan, o'yindagi xolatlarni oldindan ko'zlay oladigan va shunga muvofiq eng to'g'ri echimlarni topadigan futbolchi chaqqon o'yinchi hisoblanadi. Agar biz to'p bilan yaxshi o'ynaydigan futbolchini eng yaxshi o'yinchi, texnikasi bo'shroq futbolchini jamoaning bekorchi a'zosi deb atasak, noto'g'ri fikr bildirgan bo'lamiz. To'pni oyoq bilan necha marta o'ynay olish qobiliyati chaqqonlikni bildirmaydi. Zero shunarsa shubxasizki, yaxshi futbolchilar ikkala sifatlarga-o'yindagi xolatlarni sezish va tanlash xamda to'p bilan o'ynash (jonglyorlik qilish) malakasiga egadirlar (5,7,9,11,14,17).

Yosh futbolchi oldiga uning tayyorgarligiga nisbatan yanada qiyinroq vazifalar qo'yilsa, bu chaqqonlikni tarbiyalashning eng samarali uslubi xisoblanadi. Xar qanday mashqni qiyinlashtirish (murakkablashtirish) mumkin. Masalan, bita texnika usulini ketma-ket bajariladigan bir nechta usullar bilan (kompleks xolda) almashtirish mumkin. Bunda o'yinchining koordinatsion malakalari takomillashadi.

Boshqacha hal etish xam mumkin: yosh o'yinchi oldiga kutilmaganda paydo bo'lgan vazifalarni qo'yish. Bunday vazifalar shunday bo'lishi kerakki, o'yinchi ko'p



sonli imkoniyatlardan birini tanlashi va qanday usulni qo'llash lozimligini o'zi xal etishi mumkin bo'lsin.

Faqat shu tarzdagina futboldagi xarakatlar soni ko'payadi va shunday qilib Yangi koordinatsion xarakatlar xosil bo'ladi.

Chaqqonlikka qaratilgan mashqlar birinchi navbatda markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida o'yinchi psixik toliqishni (charchashni) boshdan kechiradi. Shu sababli chaqqonlikka qaratilgan mashqlar (turli shakllarda) quyidagi sharoitlarda: o'yinchilar dam olib bo'lganlarida; trenirovkaning asosiy qismi boshida qo'llaniladi.

To'p bilan jonglyorlik qilish maxsus chaqqonlikni rivojlantiruvchi va o'yin texnikasini o'rganishga yordam beruvchi mashqlar xisoblanadi.

Asosan murakkab shakllarda to'p bilan bajariladigan oddiy mashqlar xamda texnikaning oddiy elementlari chaqqonlikni rivojlantirishning eng samarali usullaridan xisoblanadi.


Buning uchun o'yin mashqlari va texnika xamda taktika elementlaridan iborat o'yinlar, shuningdek to'p bilan atletika o'yinlari foydalidir.

1.5. Kuch va uni tarbiyalash usullari

Inson kuchi tashqi qarshiliklarni kuchlanish orqali yengish qobiliyati tushuniladi. Maktablar uchun jismoniy tarbiya dasturida, birinchi sinflardan boshlab bolalarning kuch tayyorgarligi ko'zda tutilgan.

Mehnat va sport faoliyati jarayonida, turmushda kuch chidamliligi va portlash kuchi eng ko'p ahamiyatga ega. Kuchning bu turlari ro'yobga chiqishi bilan inson har qadamda to'qnash keladi (masalan: og'ir atletikada, sport gimnastikasida, kurashda va boshqalar) maksimal kuchni mushaklar qisqa-rishlarining yuqori tezligi bilan birga qo'shib olib borishda (uloqtirish, greble va boshqalar) bajarilishi vaqtida foydalaniladi. Insonni absolyut nisbiy kuchni farqlash kerak. Yani shaxsiy og'irligining 1 kg ga to'g'ri keladigan kuchni miqdori u tayyorgarligi bir xilda bo'lgan, ammo har xil og'irlikdagi atletikachilarning kuchlarini taqqoslash uchun aniqlanadi.

Kuch mashqlarini bajarish vaqtida mushaklar uch xil tartibda ishlashi mumkin:



1. O'z uzunliklarini (statistik izometrik) o'zgartirmaydigan rejim.
2. O'z uzunliklarini qisqartirib (pryudolevayushiy, miometrik) rejim.
3. Uzayib yon beruvchi (pliometrik) rejim.

Chunonchi, masalan oyoqlar to'g'ri ko'tarilgan vaqtda og'irlikda to to'g'ri burchakgacha mushaklar faoliyatining barcha uchala tartibi uchrashadilar. Mushak ishining uzunligini qisqartirishda – oyoqlarni ko'tarish, statistik ish – oyoqlarni 90° burchak ostida ushlab turish; Mushaklarni uzayishi – dastlabki holatga qaytish oyoqlarni tushirish. O'quvchilar jismoniy tarbiyasida umumiy va maxsus kuch tayyorgarligi amalga oshiriladi.

Umumiy kuch tayyorgarligi_insonning mehnat faoliyatiga tayyorligi va jismoniy rivojlanishi uchun ahamiyatga ega bo'luvchi barcha asosiy mushaklar guruhlarining garmonik rivojlanishiga qaratilgan.


Maxsus kuch tayyorgarligining_maqsadi faoliyatining tanlangan turiga tadbiqan musobaqalashuvchi harakatning texnikasi bilan mushakning muvofiq guruxlari kuchining birga qo'shib olib borilishining yuzaga chiqishi jismoniy sifatlarning rivojlanishidir.

Inson kuchini o'lchash uchun har xil konstruktsiyalardagi dinamometrlar qo'llaniladi. Eng ko'p qo'llanishni panja va (gavda) bel umurtqa dinamometri bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar o'lchamlar majmuasiga kiradi, ular bo'yicha o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi to'g'risida mulohaza yuritadilar.


Biroq bu ikkita ko'rsatkich ayrim mushak guruxlarining kuchi to'g'risida zaruriy axborot bermaydi.

Maktab o'quvchilarida ayrim mushak guruxlarining kuchini aniqlash uchun gavda dinamometrining ayrim unsurlari moslamalardan taglik uchun sirtmoqlar bilan to'ldirib foydalaniladi. Masalan: gavdaning mushak o'quvchilar kuchini aniqlash vaqtida o'quvchilar gimnastika devoriga undan 1 m masofada orqa bilan yerga o'tiradilar. Oyoqlar va bel mustahkamlanadi. Ko'krakka sirtmoqli kamar kiyiladi, unga

dinamometr biriktiriladi. Ayni vaqtda taranglashilishlarni sezmasligi, osilib turmasligi uchun gimnastika devoriga barcha tizim bog'lab qo'yiladi.



1-rasm



Kuchning dinamik va portlash, shuningdek kuch chidamliligini o'lchash uchun amaliyotda xilma-xil nazorat mashqlaridan foydalaniladi. Tezkorlik – kuch sifatlarini aniqlash uchun uzoqlikka har xil og'irlikdagi (tosh, chiralar, yadro va to'ldirilgan to'plarni uloqtirish) kabilardan foydalaniladi.


- Har xil boshlang'ich holatlarda (turib, yotib) qadoq toshlar, shtangalarni ko'tarish, tortilish, tayanib yotishda siqish yoki qo'l bilan to'ldirilgan qopchani;
- Kuch chidamliligini aniqlash uchun topshirilgan balandlikka sakrash bo'yicha joyida sakrash;
- Maksimal kuchni aniqlash uchun oxirgi og'irlikni ko'tarish;

Maktab o'quvchilarini kuchini tayyorlash maqsadida umuman barcha mushak tizimlarining yoki ayrim mushak guruhlarining kuchi rivojlanishiga ko'maklashuvchi maxsus mashqlardan foydalaniladi.

Portlovchi va maksimal kuchni rivojlanishining asosiy vositalari har xil turdagi og'irlikdagi inventar va buyumlardan gantellar, to'ldirilgan koptoklar, qum bilan to'ldirilgan qopchalar, shtangalar, amortizatorlar bilan, blokli uskunalar) bilan bajariladigan mashqlardir.

